

Balli, yigitlar!

Xalqimizning “Bir yigitga yetmish hunar ham oz” degan naqli bor. Darhaqiqat, bu gapda teran ma’no mujassam. Sababi yigit kishi ertaga oila boshlig’i, oilaning suyangan tog’i bo’ladi. Shu sababli yigitlarimizning iqtidorlarini sinab ko’rish uchun “Yer resurslarini boshqarish” fakultetining yoshlar bilan ishlash bo’yicha dekan muovini Hurriyat Eshova tashabbusi bilan talabalar turar joyida o’g’il bolalar o’rtasida osh musobaqasi o’tkazildi.

Musobaqa juda qiziqarli tarzda bo’lib o’tdi. Bu musobaqa chin ma’noda milliylik va an’analar targ’iboti tadbiriga aylandi. Ushbu musobaqadan maqsad ham talaba yigitlarimizning milliy taomimiz bo’lmish “palovxonto’ra”ni tayyorlash usuli, an’analarini va ularni pazandalik mahorati qay darajada ekanligini baholashdan iborat edi. Unda fakultetning mard va jasur yigitlari qo’l bola osh damlashdi. Keksalarimiz bejizga aytishmagan, yigit kishini qo’li shirin bo’ladi deb. Bugungi musobaqada talaba yigitlarimiz tayyorlagan osh juda ham totli bo’ldi va bu barcha yig’ilganlarga manzur bo’ldi. Musobaqa g’oliblariga fakultet dekani Z.Muqimov tomonidan faxriy yorliqlarni dekan muovini H.Eshova topshirdi.



YERB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo’yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti

Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov